

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

I.Toirov	
Texnosivilizatsiya jarayonining ijtimoiy-falsafiy talqini	109
B.Mirzaraximov	
Turizmning axloqiy-estetik mohiyatini tadqiq etishga oid metodologik yondashuvlar	117
M.T.Voxidova	
Xondamir asarlarida axloq va adolat g'oyalarining falsafiy talqini	123
D.E.Normatova	
IX-XII asrlarda o'rta osiyoda ilmiy-axloqiy tafakkur rivoji	127
B.X.Tolipov	
Innovatsion iqtisodiy raqobat muhitining yoshlar iqtisodiy faolligiga ta'siri	131
A.A.Salmonov	
Inklyuziv jamiyatning ijtimoiy falsafiy mazmuni	135
X.X.Yuldashxodjayev	
Musoxon Dahbidiy merosida davlat boshqaruvi va ma'naviy etakchilik hamda ijtimoiy mas'uliyatning zamonaviy talqini	140
G.I.Hashimova	
Harbiy ijtimoiy ish – davlat va fuqarolik institutlarining kontseptual-nazariy, siyosiy-huquqiy faoliyati tizimi sifatida	144
K.Shadmanov	
Literary and rhetorical traditions of latin and greek languages on the formation of english philosophical literature	149
A.A.Mo'ydinov	
Ma'naviy amaliyot kategoriyasining ijtimoiy-falsafiy talqini	153
A.A.Sayitxonov	
Tadbirkorlik faoliyatida innovatsion usullarning zaruriyati	159
G.M.Bozorova	
Muhammad Sharif Jurjoniyl ilmiy merosi va uning inson tafakkuri rivojidagi falsafiy ahamiyati	163
D.A.Sobirov	
Inson va mehnat: falsafiy tafakkur tarixida izlanish	168
Z.I.Narziev	
Aziziddin Nasafiyning tasavvuf ontologiyasi va ontologik konsepsiyalarga munosabati	177
X.M.Burxanov	
Raqamli jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari	183
S.Q.Qaxxorova	
Zamonaviy yoshlar ma'naviyati, axloqiy qadriyatlar va ruhiy barkamollikka yo'l	188
J.J.Shodiyev	
Inson ruhiy barkamolligi va jamiyat barqarorligini falsafiy yondashuv orqali rivojlantirish	192
N.U.Nurmatova	
Abdulkholiq G'ljduvoniylning "Maqomoti Yusuf Hamadoniyl" asari tahlili	196
A.A.Azimov	
Rudakiyl falsafiy qarashlarida ijtimoiy adolat va inson tarbiyasi	200
S.H.Pulatov	
Abu Homid al-G'azzoliyl va Ibn al-Arabiyl ilmiy merosining keyingi davrlarda tadqiqi va bugungi kundagi ahamiyati	206
E.X.Zoyirov	
Ya'qub Charxiyl ta'limotida borliq nazariyasi.	211
F.A.Qalandarova	
Ijtimoiy tabaqalanish evolyutsiyasi va uning zamonaviy jamiyatdagi yangi ko'rinishlari	217
S.R.Kutlimuratov	
Turkistonda jadidchilik harakatining shakllanishi	222
R.Sh.Bozorova	
Yangi O'zbekistonda ayollar intellektual va ma'naviy salohiyatini shakllantirishda ijtimoiy-falsafiy omillar, qadriyatlar va gender adolatning ahamiyati	226
Z.A.Ergasheva	
Yangi O'zbekistonda huquqiy ta'lim va axloqiy tarbiyani uyg'unlashtirish zarurati	230
Sh.F.Polvonov	



UO'K: 1:174:891.735.2(575.1)

RUDAKIY FALSAFIY QARASHLARIDA IJTIMOY ADOLAT VA INSON TARBIIYASI

SOTSIALNAYA SPRAVEDLIVOST I VOSPITANIE CHELOVEKA V FILOSOFSKIX
VOZZRENIYAX RUDAKI

SOCIAL JUSTICE AND HUMAN EDUCATION IN PHILOSOPHICAL VIEWS OF RUDAKI.

Azimov Adiz Abdullayevich 

Buxoro davlat texnika universiteti "Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat" kafedrası katta o'qituvchisi.

Annotatsiya

Maqolada Abu Abdulloh Jafar Rudakiyning qarashlarida ijtimoiy adolat va inson tarbiyasi masalasi yoritilgan, Rudakiy ijtimoiy adolatni tiklashda inson tarbiyasi alohida ahamiyatga ega ekanligini yoritib beradi. Rudakiy asarlarida insonga muhabbat, insonparvarlik, mehr – shavqat, saxiylik, insonlarning o'z hatti-harakatlari uchun javobgarligi kabi xislatlarni yoritib beradi. Rudakiy she'rlarida zo'ravonlik, ma'naviy qashshoqlik va ijtimoiy nomutanosibliklarga tanqidiy munosabatda bo'ladi. U kambag'allarga hamdardlik bildirishga chaqiradi va oqilona hamda adolatli boshqaruvning ahamiyatini ta'kidlab o'tadi.

Аннотация

В статье рассматривается вопрос социальной справедливости и человеческого воспитания во взглядах Абу Абдуллы Джафара РудакИ, РудакИ поясняет, что человеческое воспитание имеет особое значение в восстановлении социальной справедливости. РудакИ раскрывает такие качества, как любовь, гуманность, доброта и великодушие, ответственность людей за свои поступки. Стихи РудакИ иногда критикуют насилие, бедность и социальное неравенство. Он призывал к состраданию к бедным и подчеркивал важность рационального и справедливого управления.

Abstract

The article examines the issue of social justice and human education in the views of Abu Abdullah Jafar Rudaki, Rudaki explains that human education is of particular importance in restoring social justice. Rudaki reveals such qualities as love, humanity, kindness and generosity, people's responsibility for their actions. Rudaki's poems sometimes criticize violence, poverty, and social inequality. He called for compassion for the poor and emphasized the importance of rational and fair governance.

Kalit so'zlar: Rudakiy Samarqandiy, axloqiy - falsafiy qarashlar, insonparvarlik, mehribonlik va saxiylik, hamdardlik va xayrixohlik, mehr-oqibat, aqli ideal hokim, Sharq falsafiy va axloqiy tasavvurlari, shodlik, adolatli va g'amxo'r hukmdor, aql-zakovat, adolat, rahm-shafqat va mas'uliyat, moddiy boylik va qudrat.

Ключевые слова: РудакИ Самарканди, морально-философские взгляды, гуманность, доброта и щедрость, сочувствие и благожелательность, человеколюбие, доброта, умный идеальный правитель, восточные философско-нравственные идеи, радость, справедливый и заботливый правитель, интеллект, справедливость, милосердие и ответственность, материальное богатство и власть.

Key words: Rudaki Samarkandi, moral and philosophical views, humanity, kindness and generosity, sympathy and benevolence, philanthropy, kindness, intelligent ideal ruler, eastern philosophical and moral ideas, joy, fair and caring ruler, intelligence, justice, mercy and responsibility, material wealth and power.

KIRISH

Sharq uyg'onish davrining buyuk siymolaridan biri bo'lgan Abu Abdulloh Rudakiy nafaqat mumtoz adabiyotning asoschilaridan, balki inson, jamiyat va axloqiy qadriyatlar haqida chuqur falsafiy mulohazalar bildirgan mutafakkir sifatida ham alohida o'rin egallaydi. Uning ijodida adolat, ezgulik, ma'naviy poklik, inson tarbiyasi va aqlning ustuvorligi kabi tamoyillar bosh g'oya sifatida namoyon bo'ladi. Rudakiyning asarlarida insonning kamoloti faqat aqliy etuklik yoki ma'rifat bilan emas, balki ijtimoiy adolat qaror topgan muhitda shakllanishi mumkinligi ta'kidlanadi.

Bugungi globallashuv, ma'naviy yangilanish va jamiyat taraqqiyotiga oid jarayonlar fonida Rudakiy ilgari surgan axloqiy-falsafiy qarashlar o'z ahamiyatini yo'qotmagan, aksincha, zamonaviy tarbiya tizimi va ijtimoiy munosabatlar uchun dolzarb metodologik manba bo'lib xizmat qilmoqda. Uning fikricha, tarbiya jarayoni insonning nafaqat shaxsiy fazilatlarini, balki jamiyatning ma'naviy

FALSAFA

qiyofasini belgilovchi muhim omildir. Shuningdek, shoir adolatni inson hayotining ma'naviy tayanchi, jamiyat barqarorligining asosi sifatida talqin qiladi.

Ushbu tadqiqot Rudakiyning falsafiy merosini ijtimoiy adolat va inson tarbiyasi masalalari bilan bog'liq holda tahlil etadi, uning g'oyalarining mazkur yo'nalishlarda tutgan o'rnini hamda zamonaviy pedagogika va axloqiy-ma'naviy tarbiya jarayonlaridagi ahamiyatini yoritib beradi. Shuningdek, Rudakiyning qarashlari sharqona tafakkur, ezgulikka da'vat va komil inson konsepsiyasi doirasida o'rganilib, ularning hozirgi davr jamiyat taraqqiyotiga qo'shadigan nazariy-metodologik hissasi ochib beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur mavzu bo'yicha o'tkazilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Rudakiyning falsafiy qarashlari haqida yozilgan ilmiy manbalar asosan Sharq mumtoz adabiyoti, tasavvuf falsafasi va ma'naviy-etnik qadriyatlar doirasida o'rganilgan. A.Rustamov, S.Ayni, B.G'afurov, A.Hayitmetov kabi tadqiqotchilar Rudakiyning ijodiy merosi, uning insonparvarlik g'oyalari, tarbiya haqidagi qarashlari va axloqiy-falsafiy tamoyillarini yoritib berganliklari bilan ahamiyatlidir. Biroq ijtimoiy adolatning Rudakiy falsafasidagi o'rnini, shuningdek, uning pedagogik va axloqiy qarashlarining zamonaviy tarbiya jarayonlari bilan uzviy bog'liqligi hali etarli darajada chuqur tadqiq etilmaganini adabiyotlar tahlili tasdiqlaydi.

Ko'pgina ilmiy ishlar Rudakiyning she'riy merosini poetik tahlil doirasida o'rgangan bo'lsa-da, undagi ijtimoiy adolat konsepsiyasi, komil inson g'oyasi, ezgulik va axloqiy poklikni tarbiyaning asosiy mezonini sifatidagi yondashuvlar alohida tizimli tahlilni talab etadi. Tadqiqot davomida shoirning ruboiy va qasidalarida aks etgan tarbiya, axloqiy me'yorlar, ma'naviy qadriyatlar va adolat tamoyillariga e'tibor qaratildi. Shuningdek, zamonaviy pedagogika, ijtimoiy falsafa va axloqshunoslik bo'yicha adabiyotlar ham tahlildan o'tkazilib, Rudakiy qarashlarining bugungi nazariy oqimlar bilan uyg'unlik jihatlari ko'rsatildi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida bir necha ilmiy yondashuvlar qo'llanildi. Avvalo, tarixiy-tahliliy metod yordamida Rudakiyning yashagan davri, ijtimoiy-madaniy muhit va uning fikrlarining shakllanishiga ta'sir qilgan omillar o'rganildi. Falsafiy-taqqoslash metodi asosida Rudakiy qarashlari boshqa Sharq mutafakkirlari - Forobiy, Ibn Sino, Sa'diy, Jomiy kabi allomalarning tarbiya va adolat haqidagi g'oyalari bilan solishtirildi. Hermenevtik metod orqali shoir asarlariga chuqur ma'no jihatidan yondashilib, undagi axloqiy-falsafiy qatlamlar sharhlab berildi. Tizimli yondashuv esa Rudakiy qarashlarining ijtimoiy adolat, ma'naviy tarbiya va komil inson idealini shakllantirishdagi o'zaro bog'liqligini aniqlashga imkon berdi.

Tadqiqotda kontent tahlili, ilmiy adabiyotlarni solishtirish, mavzuga oid nazariy manbalar sintezi kabi uslublardan foydalanilib, Rudakiy falsafiy qarashlarining hozirgi pedagogik-amaliy jarayonlar uchun metodologik ahamiyati asoslandi. Ushbu metodlar orqali shoirning g'oyalari nafaqat tarixiy-falsafiy meros sifatida, balki bugungi ijtimoiy adolatni qaror toptirish va inson tarbiyasini takomillashtirishdagi nazariy asos sifatida ham yoritildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Buyuk mutafakkir Abu Abdulloh Jafar binni Odam Rudakiy Samarqandiy (858–941) [1] - nafaqat fors-tojik adabiyotining, balki jahon adabiyotining buyuk namoyandalaridan biri hisoblanadi.

Abu Abdulloh Rudakiyning ijodining kam qismi bizlargacha etib kelgan bo'lsa-da, uning saqlanib qolgan ruboiy, g'azal va she'rlarida ijtimoiy-axloqiy va falsafiy qarashlarida keng qamrovli g'oyalar mavjudligi bilan ajralib turadi.

Abu Abdulloh Jafar Rudakiy Samarqandiyning merosida qat'iy va uzviy falsafiy [2] qarashlarini tahlil etish jarayonida, uning axloqiy - falsafiy qarashlarining mohiyatida insonparvarlik, inson qadr-qimmatini hurmat qilish, hayotda muhabbat va quvonch bilan yashash, tabiat va uning odam bilan uzviy bog'liqligi, jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy tengsizlikni tanqid qilish, hukmdorning ma'naviy qiyofasi va hokimiyat mas'uliyati, donolik va bilim, mehribonlik va saxiylik, insonlarning o'z hatti-harakati uchun javobgarligi kabi xislatlarni namoyon bo'ladi[3].

Rudakiy o'zining ijtimoiy-axloqiy qarashlarida insonning ichki dunyosi, uning ma'naviy-axloqiy fazilatlariga katta e'tibor bergan. Hayot va taqdir oldida hamma odamlar tengligiga ishongan. Uning asarlarida ko'pincha insonparvarlik, mehr-oqibat, o'zaro yordam muhimligi ta'kidlanadi: Misol:

هر انسان بخشی از دنیای بزرگ است، اما چراغ عقل برای همه یکسان نیست.

“Har bir inson bu dunyoning bir qismidir,

Ammo aql va bilimning chirog'i hamma uchun bir xil emas”.

Bu she'rida Rudakiy insoniyat bir biriga o'xshash bo'lsada, ularning ma'naviy dunyosi bir xil emas, bu ilm chirog'i hammaning ham qalbidan joy topa olmaydi, ilm-ma'rifatga hamma bir xilda munosabatda emas deb ta'kidlaydi[4]. U o'z fikrini davom ettirib ilmning inson uchun zarurligini quyidagicha ta'riflaydi:

چراغ دل انسان علم است
سپر از خطرات علم است،

Odamlar qalbining chirog'i bilim,
Balodan saqlanish yarog'i bilim.

Mazmuni: Inson qalbini zulmat va johiliyatdan yorituvchi bilim ekanligi, bilimning bu olamda har qanday og'ir vaziyatda ham qalqon va ham qalbni tozalovchi vazifasini bajarib balo qazolardan qutqarishi mumkinligiga ishora qilinadi.

Rudakiyning she'rlarida ba'zan zo'ravonlik, ma'naviy qashshoqlik va ijtimoiy nomutanosibliklarga tanqidiy munosabatda bo'ladi. U o'zining she'rlarida xalq dardini yoritib, hokimlarni kambag'allarga hamdardlik va insonparvarlik qilishga chaqiradi, shu bilan bir qatorda ularni oqilona hamda adolatli boshqaruvning ahamiyatini ta'kidlaydi.

Rudakiy falsafiy qarashlari chuqur insonparvarlik g'oyalari va ijtimoiy adolatga intilish yotdi. Insonlarga hamdardlik va xayrixohlik, kambag'al va mazlumlarning iztiroblariga e'tibor qaratish, insoniyatni jamiyatda bir-biriga o'zaro yordam va mehr-oqibatli bo'lish kerakligini alohida ta'kidlandi.

Rudakiyning she'rlarida ijtimoiy-siyosiy g'oyalar ham muhim o'rin egalladi, u har bir odamning jamiyatda o'z qilmishini hisoboti borligini ta'kidladi va qilmishi uchun javob berishini ta'kidlab quyidagicha baholadi;

برای خشونت و قتل، شمشیرها در دست می‌درخشند
خداوند بدی را نمی‌پوشاند و به صد برابر جزا می‌دهد

Chun teg' ba dast ori, mardun natavon kusht,
Nazdik Xudovandbadi nest faromush [1]

**Qilichni qo'lingga odamlar o'ldirish uchun olma,
Chunki Xudoning huzuridagi yomonlik unutilmas**

(Mazmuni: Hech bir yomonlik unutilmaydi hatto podshoning qo'liga qilich tushsa adolatni tiklash uchun, ammo bu qilich odam o'ldirish uchun emas)

Bu she'ri bilan shoir zulm va tengsizlikni tanqid qiladi, hukmdorlarni xalqqa nisbatan donolikka, halolikka, xalqqa g'amxo'rlik qilishga chorlaydi. Abu Abdulloh Rudakiy boshqaruvchi sinf vakillariga rahm-shafqatli bo'lishi, o'z fuqarolariga g'amxo'rlik qilishi, aql va halollik bilan hukmronlik qilishi kerak deb da'vat qiladi. Abu Abdulloh Rudakiy tasavuridagi hukmdor siymosi, hokimiyatning mas'uliyati, o'z xalqi manfaatlarini yo'lida ish tutuvchi dono, adolatli va g'amxo'r hukmdor idealini aks ettiradi. U o'z asarlarida hokimiyat nafaqat imtiyoz, balki eng avvalo ulkan mas'uliyat ekanligini ta'kidlaydi.

Rudakiy hukmdor adolatli va xolis bo'lishi, o'z fuqarolarining farovonligi haqida qayg'urishi kerak, chunki adolatli hukmdor-barqaror davlat asosidir degan fikrga keladi. Rudakiy hukmdorning muhim vazifasini xalq farovonligini ta'minlash va himoya qilishdan iborat deb hisoblaydi, yaxshi hukmdorni o'z oilasidagi barcha a'zolarining ehtiyojlarini o'ylaydigan g'amxo'r otaga o'xshatadi [5].

Rudakiy hukmdorning donishmandligini uning asosli qarorlar qabul qilish va ilmga amal qilish qobiliyati bilan bog'laydi. U hokimiyatdagi ahmoqlik va jaholatni qoraladi, bu esa mamlakat uchun falokatlarga olib kelishini aytib o'tdi. Rudakiy hukmdor rahmdil bo'lishi, xalq tomonidan sodir bo'lgan xatolarni iloji bo'lsa kechirishi kerak, mazlumlarga yordam berishi kerak deb hisoblaydi. Shafqatsiz hokim, va shafqatsiz boshqaruv halokatli bo'lishini alohida ta'kidlaydi. Hokim Rudakiy fikricha, qilmishi uchun faqat xalq oldida emas, balki Xudo oldida ham javobgardir. Uning kuchi mutlaq emas - u axloqiy va ilohiy qonunlar bilan chegaralangan deb o'rgatadi.

Rudakiy ideal hokim obrazini aql-zakovat, adolat, rahm-shafqat va mas'uliyatni uyg'unlashtirgan holda yaratgan. Bu qarash Sharq falsafiy va axloqiy tasavvurlari bilan hamohang bo'lib, unda hokim Yerdagi Xudoning soyasi sifatida ko'rib, o'zi boshqarayotgan hududda tartib-intizom va uyg'unlikni saqlash uchun mas'ul shaxs sifatida qabul qiliadi.

Hokim obrazi va hokimiyat mas'uliyatini Rudakiy o'z asarlari va falsafiy mulohazalari orqali ochib berib, bunda adolat, zakovat va fazilat g'oyalarini aks ettiriladi. Masalan, u o'zining "Modari may" qasidasida Samoniylar xonadoni vakillarini xalqning g'amxo'ri, adolatli va aqlli, ideal hokimni madh etadi. Qolgan hakimlarni shu hokimlarga, va ayniqsa o'z maxdumi Nasr liibn Ahmad kabi hukmdar bo'lishga chaqiradi, chunki hukmdar o'z xalqining axloqiy mezonini bo'lishi kerak, va xalq

FALSAFA

undan o'rnak olishi kerakligini alohida ta'kidlaydi. Bunday g'oyalar orqali Rudakiy hokimiyatni faqatgina imtiyoz emas, balki xalqqa xizmat qilish vazifasi sifatida qabul qilganini tasdiqlaydi.

Abu Abdulloh Rudakiy ijodining yana bir qirrasini odamlar o'rtasidagi uyg'unlik va birlikdir, uning asarlarida jamiyatdagi har bir inson ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, jamiyat va qonun oldida tengdirlar.

Abu Abdulloh Rudakiy moddiy boylik va qudratning vaqtinchalik ekanligini eslatib o'tib, axloqiy va ma'naviy qadriyatlar hayotdagi asosiy boylik va qudrat bo'lib u jamiyatni yuksak darajaga olib chiqishini qayta-qayta da'vat etdi.

Rudakiy falsafasi hayotga muhabbat, shodlik, har kunlik hayot quvonchlaridan baxtli bo'lish kerak degan fikrga asoslanadi. Uning dunyoqarashini zo'hdlikka va dunyoviy lazzatlarni inkor etishga qarshi, optimizm madhiyasi deb hisoblash mumkin. Uning falsafiy qarashlarining asosiy jihatlari; har bir lahzaning qadriga etish, hayotning har bir lahzasidan zavq olishga undash kabi qarash yotadi, bunday qarashlarida Rudakiy qadimgi yunon faylasuflarini ilmiy me'rosiga tayanib ular tarafida turadi. Insonning eng oliy qadriyatlaridan biri o'zini o'rab turgan olamni tushunishga, uning go'zalligini his etishdir, va har bir jamiyat a'zosi tabiatni asrashga mas'uldir deb qat'iy pozitsiyada turadi [6].

Mutafakkir shoirning falsafiy qarashlarining negizida insoniy tuyg'ular yotadi, bu tuyg'ularning eng muhimi bi bu mardlik ekanini ta'kidlab, Rudakiy mardlikni quyidagicha ta'riflaydi:

Gar bar sari nafi xud amirī, mardī!
Bar kīru kar ar nuqta nagiī, mardī!
Mardī nabuvad fitodaro poy zadan,
Gar dasti fitodae bigirī, mardī
[o'z nafsiga kim bo'lsa amir uldir mard
Hech kimga bo'lmasa asir uldir mard
Mardlik emas yiqilganlarni tepib o'tmoq
Tutsa g'ariblar qo'lidan uldir mard]

Mazmuni: Bu to'rtlik orqali mutafakkir haqiqiy mardlik inson o'z nafi ustidan hukmronlik qilish, nafsga qarshi kurash eng katta g'alabasi sifatida ko'rsatadi. Bu erda shaxs o'z istaklari va havoyi tuyg'ularini boshqara olishi haqiqiy kuch deb ta'riflanadi. Bu erda Odamlarga mehr va yordam ko'rsatish: haqiqiy mardlik o'z kuchini zaiflarga yordam berishda namoyon etish ekanligini ta'kidlaydi. Mardlik, odamlarga yordam berish, ularning og'ir holatlarida qo'llab-quvvatlash orqali ko'rinadi [6].

Shu bilan birga, shoir soxta mardlik tanqid qilinadi: "Mardlik emas yiqilganlarni tepib o'tmoq" degan jumla odamlarning og'ir vaziyatlaridan foydalanib qolishga harakat qilish, bu haqiqiy mardlikka zid ekanligini ko'rsatib o'tiladi. Rudakiy bu erda so'fiylar qarashlari bilan yakdillik ekanligini namoyon etib, insonning nafi ustidan g'alaba qozonishi va insonparvarlikka asoslangan faoliyati haqiqiy mardlik ekanligini tasdiqlaydi.

Abu Abdulloh Rudakiy falsafiy-axloqiy qarashlarining eng muhim tomoni ilm-ma'rifatga berilgan e'tibor hisoblanadi. Ta'limni eng asosiy umuminsoniy fazilat deb hisoblaydi shoir, chunki har bir jamiyatning ustuvor vazifasi kelajak avlodni yoshligidan gumanistik-insonparvarlik ruhida tarbiyalashdan iborat bo'lib, jamiyat kelajak avlodga tarbiya berish orqali ularda umuminsoniy fazilatlarini shakllantiradi. Bundan tashqari, Abu Abdulloh Rudakiy falsafasidagi insonparvarlik umuman bo'sh xayrixohlikdan iborat bo'lmasdan, uning uchun yaxshi tuyg'ular yaxshi ishlar bilan uzviy bog'liq bo'lib hisoblanadi. Atrofdagilarga bepisand va befarq odamlarni Rudakiy fikriga ko'ra insofsiz va shafqatsiz inson deb qaraydi. U boshqalarning ishini qadrlamaydigan va boshqalarning qayg'usiga hamdard bo'lmaganlarga nafratini bildirdi, ularni mukammal inson bo'lishga loyiq emas deb hisobladi. Shuning uchun u komil inson mehnatkash, hunarmand va ishbilarmon kishini nazarda tutadi. Ushbu ilg'or g'oyalar yoshlarni tarbiyalashga foydali ta'sir ko'rsatdi, ularga insonparvarlikni singdirdi deb qattiq ishonadi [7].

Rudakiy milliy yoki diniy ustunlik insonga ustunlik beradi, uni boshqa millatga mansub va boshqa e'tiqodga ega bo'lgan odamlardan ustun qo'yadi, deb ishonganlarga qarshi faol kurashadi. Rudakiyning Alloh barcha tirik jonzoatlarni teng yaratdi va birini ikkinchisi ustidan ustunlik bermadi deb ta'kidlaydi.

Buyuk gumanist Abu Abdulloh Rudakiy xalqning hayoti, mashaqqatlari va azoblarini kuzatib, unga chin dildan hamdardlik bildirdi, bunday qarash mutafakkirga xos bo'lgan chinakam insoniylikdan dalolat beradi. Abu Abdulloh Rudakiy o'z davrining buyuk ajdodlarining gumanistik

an'analarini davom ettirib, Vatan va xalq farovonligi uchun yashagan insonlaridan biri bo'lib, ushbu xislatga ega bo'lgan odamlarni qadrladi. U har bir inson o'z martabasi va unvonidan qat'i nazar, barcha odamlarga mehri va g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lishini, bir-biriga yordam qo'lini cho'zishi kerak deb hisobladi. Abu Abdulloh Rudakiy odamlar o'rtasidagi insoniy munosabatlarni jamiyat a'zolarining asosiy qadr-qimmati deb hisoblaydi. U qanday qilib yaxshi ishlar qilmasdan yashash mumkinligini tasavvur qila olmadi. Insonga g'amxo'rlik qilish, hamdardlik va ularga yordam berish, dedi Abu Abdulloh Rudakiy hayotning asosidir, uning fikricha, insonparvarlik belgilaridan biri insonga g'amxo'rlik qilish va uni hurmat qilishdir. Shuning uchun bunday xususiyatlarni bolalikdan odamlarga singdirish kerakligini uqtirdi.

Odamiylik ota-onalar va boshqa yaqin odamlarni hurmat qilishdan boshlanadi. Shuning uchun bolani, birinchi navbatda, otasi va onasiga hurmat ruhida tarbiyalash va shu va unga shu g'oyani singdirish zarur deb hisoblaydi.

Abu Abdulloh Rudakiy bilim ahlini masxara qiladigan aqlsiz odamlardan nafratlanib, ularni yovvoyi odamlar bilan taqqoslagan. Abu Abdulloh Rudakiy inson ongini mash'ala, haqiqatning yo'l ko'rsatuvchi yulduzi deb atagan va inson o'z faoliyatining barcha sohalarida unga tayanishi kerakligini maslahat bergan. Abu Abdulloh Rudakiy inson tabiatini yaxshi va yomon tomonlarini, xuddi yaxshi va yomon odamlar yashaydigan jamiyat bilan taqqoslaydi. Mutafakkirning da'vatida aql kuchi bilan inson o'zini yomon fazilatlardan xalos qilishi mumkinligini quyidagi jumla bilan izohlaydi: "Sizning borlig'ingiz yaxshilik va yomonlikka to'la dunyo. Inson dono va insofli bo'lishi kerak. Ehtiros va shahvat jamiyatdagi qaroqchilar va o'g'rilarga o'xshaydi. Ammo ehtiros va shahvatni jilovlash mumkin, Agar ular bilim va o'tkir aql bilan jilovlangan bo'lsa" [8].

Abu Abdulloh Rudakiy asosiy insoniy fazilat yaxshilik deb hisoblagan holda, ishonchli misollardan foydalanib, inson faoliyatining barcha sohalarida hal qiluvchi rolini ko'rsatadi.

Abu Abdulloh Rudakiyning ta'kidlashicha, aql barcha psixologik jarayonlarni boshqaradi, aql ochko'zlik, hasad, yovuzlik, shahvat va boshqa barcha illatlarni engishga qodir kuchdir. Ularni bo'ysundirish orqali aql bu illatlarni namoyon bo'lishiga yo'l qo'ymaydi[9]. Agar insonning aqliy qobiliyatlari rivojlansa, u o'z fikrlari, his-tuyg'ulari va harakatlariga tanqidiy munosabatda bo'lib, o'zida kashf etgan barcha yomon narsalarni engib chiqadi. Abu Abdulloh Rudakiy aqlni nafaqat inson hayoti va kundalik faoliyatida yo'naltiruvchi nur, balki ijtimoiy muammolarni hal qilish vositasi deb hisoblagan. Shuning uchun u mamlakatni boshqaradigan va jamoat ishlari bilan shug'ullanadigan odamlar qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi deb hisobladi[10].

Tarbiya masalasida Rudakiy insonlarni farzand tarbiyasi jarayonida faqat merosga tayanish kerak emasligi, balki tarbiyada intizomiy mehnat va tajriba kerakligini eslatadi. Rudakiyning bu g'oyalari yoshlarni tarbiyasida foydali ta'sir ko'rsatib, shu orqali, ularda insonparvarlik va milliy qadriyatlarga tayanish kabi xususiyatlarni singdiradi deb ta'kidlaydi.

Abu Abdulloh Rudakiy milliy yoki diniy ustunlik insonga ustunlik beradi, uni boshqa millatga mansub va boshqa e'tiqodga ega bo'lgan odamlardan ustun qo'yadi, deb ishonganlarga qarshi faol kurashdi[11]. Buyuk gumanist Abu Abdulloh Rudakiy xalq hayotini, mashaqqatlari va azoblarini kuzatib, unga butun qalbi bilan hamdard bo'lishi - mutafakkirga xos bo'lgan chinakam insoniylik xususiyatlar bilan yashaganligidan dalolat beradi.

Abu Abdulloh Rudakiy yosh avlodni ilm-fan va bilim yo'liga kirib, o'z maqsadlariga sabr-toqat va qat'iyat bilan intilishga chaqiradi, chunki ilm va ma'rifat jamiyatdagi azob uqubatlarga barham beradi deb qat'iyl ishonadi[12].

XULOSA

Abu Abdulloh Rudakiyning falsafiy qarashlari ijtimoiy adolat, insonparvarlik va ma'naviy tarbiya masalalarini o'zida mujassam etgan yuksak tafakkur mahsulidir. Shoirning she'riy merosi nafaqat estetik go'zalligi bilan, balki unda ilgari surilgan axloqiy-me'yoriy tamoyillar, insonning komillikka erishishi va jamiyatning adolat asosida barqaror rivojlanishi haqidagi qarashlari bilan ham qadrlidir. Rudakiy fikricha, inson tarbiyasi jamiyat taraqqiyotining bosh mezonidir; tarbiyalangan, ma'rifatli va ezgulikka intilgan shaxs ijtimoiy adolatni qaror toptirishga qodir asosiy kuchdir.

Tadqiqot davomida shoir asarlarida adolatning ma'naviy tayanch sifatida talqin qilinishi, insonning ruhiy poklanishi va to'g'ri yo'lga yo'naltirilishida tarbiyaning hal qiluvchi omil ekani aniqlandi. Rudakiy o'z g'oyalarida ezgulik, mehnatsevarlik, axloqiy mas'uliyat, rostgo'ylik kabi fazilatlarni komil inson timsolining poydevori sifatida ko'rsatadi. Bu qadriyatlar bugungi kunda ham ijtimoiy barqarorlik, ma'naviy yuksalish va tarbiya tizimini takomillashtirish uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

FALSAFA

Zamonaviy pedagogika va ijtimoiy falsafa kontekstida Rudakiy qarashlarining qayta tahlil qilinishi shuni ko'rsatadiki, uning ilgari surgan tamoyillari - adolat, ma'rifat va insonparvarlik - jamiyatning har bir davrida o'z qiymatini yo'qotmaydigan universal g'oyalardir. Shoirning falsafiy merosi inson tarbiyasiga oid nazariy asoslarni boyitadi, ma'naviy-etnik qadriyatlar tizimida muhim o'rin egallaydi hamda hozirgi davr tarbiya jarayonlari uchun metodologik yo'nalish bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, Rudakiyning ijtimoiy adolat va inson tarbiyasi haqidagi qarashlari o'zining hayotiyliigi, chuqurligi va tarixiy-dolzarliligi bilan ajralib turadi. Ular nafaqat o'tmish merosi, balki bugungi jamiyatda komil insonni shakllantirish, ma'naviy muvozanatni mustahkamlash va adolatli ijtimoiy muhit yaratish uchun ham muhim nazariy asos bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ашуров Г. Философия эпохи Саманидов. Душанбе: Ирфон, 2006. 220 с., С. 131-133.
2. Яздони Н. Сайре дар шеъри аҳди Рӯдакӣ. Дар шинохти асо лати миллӣ // Садои Шарк, 2008, № 2, С. 97-108.
3. Бухори О. Ҳикмати Рудаки // Адабиёт ва санъат, 2008, 14. 02. 08 (№ 7); Абдулов К. Устод Рӯдакӣ ва ҷаҳоншиносии тоҷикӣ // Адабиёт ва санъат, 2008, 13. 03. 08 (№ 11); Қаландаров Х. Кист он «ти рачашм шоири равшанбин» // Адабиёт ва санъат, 2008, 24. 04. 08 (№ 17); Охониёзов В. Мафхуми ранғо дар афкор ва осори Рӯдакӣ ва ҳамасрони // Адабиёт ва санъат, 2008, 13. 04. 08 (№ 13-14). Рудаки: традиция и современность. Душанбе, 2007.-682 с.
4. Поэтическое наследие поэта, как известно, по одной версии, насчитывает 130 тысяч двустиший, по другой 1300 тысяч. Однако до нашего времени дошло не многим более 1000 бейтов. Каландаров Х. Указ. работа.
5. Все поэтические цитаты Рудаки осуществлены по книге Рӯдакӣ. Насими мӯлиён. Маҷмӯаи ашъор. Душанбе: Адиб, 1999. 192 с. В дальнейшем рядом с цитатой из книги в скобках будет указана страница цитируемого текста.
6. Саймиддинов Д. Адабиёти пахлави, Душаебе, 2003 С. 75.
7. Додихудоева Л.Р. и Рейснер М.Л. Духовные традиции творчества: Носир Хусрав и Рудаки / Рудаки: традиция и современность, С. 426-427.
8. Более развернуто о состоянии науки, философии и культуры эпохи Саманидов см. Ашуров Г. Философия эпохи Саманидов. Душанбе: Ирфон, 2006. – 220 с.
9. Jurakulovich, S. J. (2023). The role of the national idea in increase of human values. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(10), 1160-1164.
10. Shodiyev Jahongir Jo'raqulovich. Inson qadri va uning huquqlari eng oliy qadriyat: tarixiy-huquqiy meros. Ilm sarchashmalari/ Urganch – 3.2023. 19-21.
11. Kodirov K. Ta'rixi falsafai to'chik. Dushanbe: Maorif, 1998-27216-17.
12. Краткий философский словарь. <http://ksana.knarod.ru/Book/Filosof>.